

## HUDUD DAROMAD SALOHIYATINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

**Qobulov Xotamjon Abdulkarimovich**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Moliya va moliyaviy texnologiyalar"  
kafedrası mudiri, i.f.n., professor*

Hududiy daromad salohiyatini boshqarish samaradorligi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Uni ilmiy asosda baholash uchun zamonaviy sharoitlarga mos miqdoriy indikatorlar tizimi va integrallashgan metodologik yondashuv zarur, chunki amaldagi mexanizmlar hududiy resurs, ishlab chiqarish va institutsional imkoniyatlarni to'liq qamrab olmayapti hamda baholashlarning aniqligini pasaytirmoqda.

Hududlar daromad salohiyatini obyektiv baholash takomillashtirilgan ko'rsatkichlar tizimi orqali daromad bazasining real imkoniyatlarini aniqlash, resurslardan foydalanish samaradorligini baholash va hududiy siyosat natijadorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli tadqiqotda daromad salohiyati va undan foydalanish holatini baholash uchun barcha tarkibiy qismlarning mutanosibligini aniqlovchi, hududning iqtisodiy va moliyaviy imkoniyatlarini kompleks aks ettiruvchi integral indeksga asoslangan uslubiyot ishlab chiqildi.

Quyida taklif etilgan integral baholash yondashuvi, uning tarkibiy qismlari, hisoblash mexanizmi va amaliy natijalari batafsil yoritiladi

HIMI — hududlarning iqtisodiy va moliyaviy salohiyatini kompleks baholaydigan integral indeks bo'lib, iqtisodiy hajm, ishlab chiqarish diversifikatsiyasi, aholi resurslari, mahalliy byudjet imkoniyatlari, xizmatlar bozori va agrar baza kabi muhim tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi. Bu indeks, oddiy reyting emas — u hududning iqtisodiy va moliyaviy portretini shakllantiradi va quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$HIMI = \frac{G+I+E+P+S+A+B}{7} \quad (3)$$

Bu formulada G — yalpi hududiy mahsulot, I — sanoat salohiyati, E — eksport salohiyati, P — aholi va bozor sig'imi, S — xizmatlar rivoji, A — qishloq xo'jaligi salohiyati, B — byudjet daromadlari ko'rsatkichlarini bildiradi. Indeksning qiymati odatda 1,00 dan 5,00 gacha bo'ladi va qiymatning yuqoriligi hududning iqtisodiy hamda moliyaviy imkoniyatlari yuqoriligidan dalolat beradi.

HIMI tarkibidagi ko'rsatkichlarni o'zaro taqqoslash uchun ularni yagona ball tizimiga keltirish zarur, chunki yalpi hududiy mahsulot, eksport yoki byudjet daromadlari o'lchov birligi va mazmuniga ko'ra farq qiladi. Shu sababli tadqiqotda har bir komponent 1–5 ball asosida normallashtirilib, hududlarning respublika o'rtacha ko'rsatkichlariga nisbatan holatiga qarab baholandi. Bu yondashuv hududlar o'rtasidagi nisbiy farqlarni aniqlash va indeks hisobini soddalashtirish imkonini beradi.

Normallashtirish HIMIning analitik aniqligini oshirib, komponentlarning integral indeksga ta'sirini baholash imkonini beradi. Biroq hudud daromad salohiyatini shakllantirishda barcha komponentlar teng emas — ayrimlari kritik rol o'ynab, ularning past darajasi umumiy salohiyatni cheklaydi. Xususan, aholi va bozor sig'imi (P) hamda xizmatlar sektori (S) iqtisodiy o'sishning multiplikativ omillari bo'lib, ular sust rivojlangan hududlarda sanoat yoki eksport yuqori bo'lsa ham salohiyat to'liq ro'yobga chiqmaydi.

Shu bois HIMI chegaraviy komponentlarni aniqlovchi diagnostik instrument sifatida "eng zaif bo'g'in" prinsipiga asoslangan siyosiy qarorlar uchun ilmiy asos yaratadi. Indeks hududlar o'rtasidagi tafovutlarni aniqlash, kuchli va zaif tomonlarni baholash, investitsiya va byudjet ustuvorliklarini belgilash, shuningdek monitoring va strategik rejalashtirishda qo'llanadi.

Integral yondashuv salohiyat hajmi bilan birga uning ichki tuzilmasi va muvozanatini ham baholash imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan, HIMI doirasida ikki mezon — barqarorlik va mutanosiblik ajratiladi. Barqarorlik komponentlarning vaqt davomida izchil va keskin tebranishlarsiz shakllanishini hamda iqtisodiyotning moslashuvchanligini ifodalaydi. Mutanosiblik esa tarkibiy qismlarning uyg'un rivojlanishini, ya'ni ayrim komponentlar haddan tashqari ustun yoki keskin orqada qolmaganligini ko'rsatadi; aks holda daromad salohiyati nomutanosib deb baholanadi.

Shu tariqa, HIMI asosida hududlarni baholash faqat integral qiymatni aniqlash bilan cheklanib qolmay, balki:

- daromad salohiyatining barqarorlik darajasi (komponentlar izchilligi),
- daromad salohiyatining mutanosiblik darajasi (komponentlar uyg'unligi)

ni aniqlash imkonini beradi. Bu esa hudud daromad salohiyatining shakllanish mexanizmini chuqurroq ochib berish hamda rivojlanish istiqbollarini ilmiy asosda prognoz qilishga xizmat qiladi.

Hududlar daromad salohiyatini chuqur tahlil qilishda integral indeks (HIMI) qiymatining o'zi yetarli bo'lmay, uning tarkibiy qismlarining ichki holatini miqdoriy jihatdan baholash muhim hisoblanadi. Shu bois, hudud daromad salohiyatining barqarorligi va mutanosibligini aniqlashda statistik tafovut ko'rsatkichlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Barqarorlik mezoni HIMI tarkibiga kiruvchi komponentlar (G, I, E, P, S, B, A) qiymatlarining bir-biriga yaqinlik darajasi bilan ifodalanadi. Ushbu holatni baholash uchun variatsiya (tafovut) koeffitsiyentidan foydalanish taklif etiladi:

$$V = \frac{\sigma}{\bar{x}} \times 100$$

bu yerda:

- $\sigma$  — HIMI tarkibiy komponentlarining standart og'ishi;
- $\bar{x}$  — komponentlarning o'rtacha arifmetik qiymati.

Agar variatsiya koeffitsiyenti past bo'lsa, bu hudud daromad salohiyatining tarkibiy jihatdan barqaror shakllanganidan dalolat beradi. Aksincha, tafovut darajasi yuqori bo'lgan hududlarda daromad salohiyati beqaror hisoblanadi, ya'ni ayrim komponentlar iqtisodiy tizimda nomutanosib ustunlikka ega.

Hudud daromad salohiyatining mutanosibligini miqdoriy baholash. Mutanosiblik mezonini esa HIMI tarkibidagi alohida komponentlarning maksimal va minimal qiymatlari o'rtasidagi farq orqali aniqlanadi. Ushbu holatni baholash uchun amplituda koeffitsiyentidan foydalanish taklif etiladi:

$$A = X_{max} - X_{min}$$

bu yerda:

$X_{max}$  — HIMI tarkibidagi eng yuqori baholangan komponent,

$X_{min}$  — HIMI tarkibidagi eng past baholangan komponent.

Amplituda qiymatining kichikligi hudud daromad salohiyatining tarkibiy jihatdan mutanosibligini, kattaligi esa iqtisodiy tuzilmaning nomuvozanatli ekanini bildiradi hamda daromad shakllanishida yetakchi yoki cheklovchi sohalarni aniqlash imkonini beradi. Tarkibiy nomuvozanatlik iqtisodiy xavf manbai bo'lib, ayrim komponentlar yuqori, boshqalari past shakllanganda ichki disproporsiyalar kuchayadi. Masalan, sanoat va eksport yuqori, ammo aholi daromadlari va xizmatlar sektori past hududlarda o'sish inklyuziv bo'lmay, byudjet barqarorligi va mehnat bozoriga bosim ortadi.

Shu sababli HIMI orqali aniqlangan nomutanosibliklar daromad salohiyatidan foydalanish samaradorligini cheklovchi omil sifatida baholanib, hududiy siyosatda tarkibiy muvozanatga ustuvor e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi. Indeks hududlar o'rtasidagi farqlarni tizimli aniqlash, byudjetlararo transfertlarni asoslash, investitsiya dasturlarini joylashtirishni optimallashtirish va rivojlanish dasturlarini differensial yondashuvda ishlab chiqishga xizmat qilib, natijada siyosatning manzilliligi va samaradorligini oshiradi.

Shuningdek, barqarorlik va mutanosiblik mezonlari asosida aniqlangan muammoli komponentlar hududiy siyosat yo'nalishlarini belgilashda muhim amaliy ahamiyatga ega. Amaldagi tadqiqotlarda daromad salohiyatini baholash ko'pincha fiskal ko'rsatkichlar yoki yalpi hududiy mahsulot bilan cheklanib, iqtisodiyotning ichki tarkibi va shakllanish mexanizmini to'liq ochib bermaydi.

Taklif etilayotgan metodik yondashuv daromad salohiyatini ko'p komponentli iqtisodiy-moliyaviy tizim sifatida tahlil qilib, uning nafaqat hajmini, balki tarkibiy barqarorligi va mutanosibligini ham integral ko'rsatkichlar orqali baholash imkonini beradi. Natijada hudud daromad salohiyatining holati va istiqbollari yanada obyektiv aniqlanadi.

Shu tariqa, HIMI asosida barqarorlik va mutanosiblikni miqdoriy baholash daromad salohiyatini umumiy hajm va tarkibiy sifat nuqtayi nazaridan kompleks tahlil qilish imkonini berib, barcha komponentlar ishtiroki istiqbollarini aniqlashga xizmat qiluvchi yangi ilmiy-uslubiy yechim sifatida namoyon bo'ladi.

Quyidagi jadval yordamida yuqoridagi formula bilan hisoblangan hududlarning HIMI ni ko'rib chiqilgan. Hisob-kitoblarga ko'ra, Toshkent shahri, Toshkent va Andijon viloyatlari eng yuqori HIMI (4,29) bilan "yuqori salohiyat" guruhiga kirib, sanoat, xizmatlar va byudjet daromadlarining barqarorligi bilan ajralib turadi. Farg'ona, Samarqand va Qashqadaryo (3,86-4,14) "o'rtadan yuqori" guruhda bo'lib, bozor sig'imi katta, biroq ayrim yo'nalishlarda imkoniyatlar to'liq ishga solinmagan.

**Hududlar iqtisodiy-moliyaviy indeksi (HIMI)**  
(2024-yil ma'lumotlari asosida)

№	Hudud	G	I	E	P	S	B	A	HIMI
1.	Toshkent sh.	● 5	● 5	● 4	● 5	● 5	● 5	● 1	4,29
2.	Toshkent vil.	● 5	● 5	● 4	● 5	● 4	● 5	● 2	4,29
3.	Samarqand vil.	● 5	● 4	● 3	● 5	● 5	● 4	● 4	4,29
4.	Andijon vil.	● 4	● 5	● 4	● 5	● 3	● 4	● 5	4,29
5.	Farg'ona vil.	● 4	● 4	● 3	● 5	● 4	● 4	● 5	4,14
6.	Qashqadaryo vil.	● 4	● 4	● 4	● 4	● 3	● 4	● 4	3,86
7.	Navoiy vil.	● 5	● 5	● 5	● 2	● 3	● 3	● 2	3,57
8.	Namangan vil.	● 3	● 3	● 3	● 5	● 3	● 3	● 5	3,57
9.	Buxoro vil.	● 3	● 4	● 4	● 3	● 4	● 3	● 3	3,43
10.	Surxondaryo vil.	● 2	● 1	● 2	● 4	● 3	● 3	● 4	2,71
11.	Xorazm vil.	● 2	● 3	● 2	● 3	● 2	● 3	● 4	2,71
12.	Qoraqalpog'iston R.	● 2	● 2	● 2	● 3	● 2	● 2	● 3	2,29
13.	Jizzax vil.	● 1	● 2	● 1	● 2	● 1	● 2	● 3	1,71
14.	Sirdaryo vil.	● 1	● 2	● 1	● 2	● 1	● 1	● 3	1,57

Namangan, Buxoro, Navoiy va Surxondaryo (3,00–3,57) “o‘rtacha salohiyat” guruhiga kiradi; bunda ayrim komponentlarning pastligi indeksni cheklaydi, xususan Navoiyda aholi va xizmatlar ulushi past. Xorazm va Qoraqalpog‘iston (2,29–2,57) “past salohiyat” guruhida bo‘lib, iqtisodiy faollik va daromad manbalari yetarli darajada shakllanmagan.

Eng past ko‘rsatkichlar Jizzax (1,71) va Sirdaryoda (1,57) qayd etilib, sanoat, xizmatlar va eksport imkoniyatlarining cheklanganligi sababli “juda past salohiyat” guruhiga mansub; qishloq xo‘jaligi esa asosiy barqarorlashtiruvchi omil bo‘lib qolmoqda. Umuman olganda, HIMI natijalari hududlar o‘rtasida iqtisodiy-moliyaviy rivojlanish darajasi sezilarli farqlanishini ko‘rsatadi hamda ularni fiskal, ishlab chiqarish, bozor, xizmatlar va agrar salohiyatni birgalikda hisobga olib baholash imkonini beradi. Metodologik jihatdan indeks hududiy jarayonlarni tizimli va qiyosiy tahlil qilishga xizmat qiluvchi integral analitik instrument bo‘lib, ijtimoiy-iqtisodiy holatni chuqur baholash, nomutanosibliklarni aniqlash va ustuvor strategik yo‘nalishlarni ilmiy asosda belgilash uchun zarur axborot bazasini shakllantiradi.

Xulosalar shuni ko‘rsatadiki, ishlab chiqilgan metodik yondashuv mavjud usullardan farqli ravishda kompleks va ilmiy asoslangan bo‘lib, daromad salohiyatining nafaqat hajmini, balki undan foydalanish samaradorligini ham obyektiv baholash imkonini beradi. Bu esa hududiy siyosatni shakllantirishda qarorlar asoslanganligi va natijadorligini oshiradi hamda daromad salohiyatini baholashda miqdoriy ko‘rsatkichlar tizimini integral yondashuv asosida qo‘llash zarurligini ilmiy va amaliy jihatdan asoslaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrda "Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning tabaqalashtirilgan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-287-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 20.01.2025-y., 06/25/7/0051-son
2. Qobulov X.A. Hudud daromad salohiyatini shakllantirish metodologiyasi va rivojlantirish strategiyasi: monografiya / X. A. Qobulov. – Toshkent: Modern science and research, 2025. –198 b.
3. Musgrave R. A. Public Finance in Theory and Practice. — New York : McGraw-Hill, 2019. — 672 b.

## **ЭФФЕКТИВНОСТЬ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПРОГРАММЫ «ЦИФРОВОЙ УЗБЕКИСТАН – 2030» В РАЗВИТИИ ЦИФРОВЫХ ФИНАНСОВЫХ УСЛУГ**

**Мурадова Дилдора Абдусалимовна**

*ст. преп. кафедры «Финансы и финансовые технологии»*

**Ахмедов Максуд Азаматович**

*Студент ТГЭУ*

**Аннотация.** В статье рассматриваются результаты реализации государственной программы «Цифровой Узбекистан – 2030» в части трансформации финансового сектора. Проведен анализ динамики развития дистанционного банкинга, безналичных расчетов, цифровой идентификации и финтех-экосистемы в 2019–2024 гг. Оценено влияние программных мер на расширение финансовой инклюзии населения. Выявлены ключевые достижения, сохраняющиеся барьеры и институциональные ограничения. Сделан вывод о значительном прогрессе в цифровизации финансовых услуг при наличии структурных проблем регионального и социального характера.

**Ключевые слова:** цифровизация, финансовая инклюзия, дистанционный банкинг, финтех, платежные системы, цифровая идентификация, государственная политика.

Цифровая трансформация финансового сектора является одним из ключевых направлений экономической модернизации Республики Узбекистан. Государственная программа «Цифровой Узбекистан – 2030» определяет развитие цифровой инфраструктуры и финансовых технологий как стратегический приоритет долгосрочного развития страны [2].

На момент запуска программы уровень финансовой инклюзии оставался ограниченным: доля взрослого населения с банковскими счетами составляла около 38%, а распространенность безналичных платежей была низкой [3]. Это сдерживало развитие предпринимательства,